

Markaziy Osiyo – Yevrosiyo barqarorligining yangi tayanchi: Myunxen xavfsizlik konferensiyasida O'zbekistonning xavfsizlik bo'yicha yondashuvi



Joriy yilning 14-15 fevral kunlari Myunxen shahrida (GFR) bo'lib o'tgan Xavfsizlik bo'yicha 62-Myunxen konferensiyasi doirasida ushbu platforma tarixida birinchi marta Markaziy Osiyo tinch transformatsiya, barqaror rivojlanish va mintaqaviy mas'uliyatning o'ziga xos modeliga ega yaxlit mintaqqa sifatida taqdim etildi. Bu fikr Nizomiy Ganjaviy nomidagi xalqaro markaz (Ozarbayjon) va Kaspiy siyosati markazi (AQSH) tomonidan tashkil etilgan tadbirlardagi munozaralar doirasida bildirildi.

Sessiyalarning asosiy ma'ruzachilari va ishtirokchilari orasida Saudiya Arabistoni Qirolligi Islom tadqiqotlari markazi direktorlar kengashi raisi Turki Al-Faysal bin Abdulaziz Al Saud, BMT Bosh kotibi o'rinbosari Migel Anxel Moratinos, YUNKTAD Bosh kotibi Rebeka Grinspan, Avstriya sobiq federal kansleri Sebastyan Kurs, Yevropa tinchlik instituti prezidenti Xelga Shmid, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Eduards Striprays va boshqalar bor.

O'zbekiston tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safojev va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Eldor Aripov ishtirok etdi. Ularning nutqlari so'nggi o'n yil ichida mojarolardan barqaror hamkorlikka o'tishga muvaffaq bo'lgan Yevroosiyo kam sonli mintaqalaridan biri sifatida Markaziy Osiyoni muhokama qilishning konseptual asosini yaratdi.

Nizomiy Ganjaviy nomidagi xalqaro markaz sessiyasida so'zga chiqqan SMTI direktori Eldor Aripov Myunxen konferensiyasida Markaziy Osiyo bo'yicha alohida, mazmunli munozara paydo bo'lishining o'zi juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladi.

"Uzoq vaqt davomida Markaziy Osiyo asosiy tahliliy va siyosiy e'tibordan chetda qoldi. Mintaqa haqidagi ma'lumotlar uzuq-yuluq va eskirgan edi. Bugun biz Markaziy Osiyoni nafaqat o'zi o'zgargan, balki global xavfsizlik muhokamasiga ijobiy hissa qo'shishga qodir mintaqqa sifatida birinchi marta tilga olmoqdamiz," - dedi Eldor Aripov.

Uning ta'kidlashicha, mintaqaning transformatsiyasi global miqyosda keskinlashuv va qutblanish jarayonlari kuchayayotgan bir sharoitda ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda. Dunyoning ko'plab hududlarida beqarorlik ortib borayotgan bir paytda, Markaziy Osiyo muqobil rivojlanish trayektoriyasini – muloqot, pragmatizm hamda “nol yig'indili o'yin” mantiqidan voz kechish tamoyillariga asoslangan yondashuvni namoyish etmoqda.

SMTI direktori o'n yil oldin ham mintaqa yopiq chegaralar, hal etilmagan hududiy va suv nizolari, vaqti-vaqti bilan sodir bo'ladigan qurolli hodisalar va chegaraning minalashtirilgan uchastkalari bilan bog'liq bo'lganini eslatdi. Bularning barchasi millionlab odamlarning hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Bugun vaziyat butunlay boshqacha.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqaviy savdo ikki barobardan ziyod ko'paydi, o'zaro investitsiyalar hajmi qariyb besh barobar oshdi, aholining transchegaraviy harakatchanligi mintaq o'nlab yillar davomida ko'rmagan darajada tiklandi. COVID-19 pandemiyasi davrida ham mintaq mamlakatlari hayotiy muhim tovarlarni yetkazib berish uchun chegaralarni ochiq qoldirgani - jamoaviy barqarorlik va o'zaro ishonchning ifodasi sifatida e'tiborga loyiqdir.



"Markaziy Osiyoning asosiy sabog'i shundaki, geografiya emas, siyosiy tafakkur o'zgardi. Eng yuqori darajadagi siyosiy iroda asosiy omil bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti qarama-qarshilik o'rniga barqarorlik va taraqqiyot foydasiga ongli tanlov qildi va mintaqaning barcha yetakchilari tomonidan qabul qilingan formulani taklif qildi: barqaror rivojlanish faqat o'zaro manfaatlar asosida amalga oshishi mumkin," - dedi SMTI direktori.

E.Aripov, shuningdek, mintaqadagi xavfsizlik faqat harbiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilmay, rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'zaro bog'liqlik natijasi sifatida qayta ko'rib chiqilganini ta'kidladi.

Ma'ruzalarda mahalliy hamjamiyatlarning o'rniga alohida e'tibor qaratildi. Uning qayd etishicha, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlik nafaqat davlatlararo kelishuvlar bilan, balki tinchlikning oddiy fuqarolar hayotida amaliy mazmun kasb etgani bilan ham ta'minlanmoqda – savdo-sotiq, turizm va transchegaraviy hamkorlik orqali.

Aynan shu yondashuv o'tgan yil oktyabr oyida Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan Farg'ona tinchlik forumining asosini bo'ldi.

"Farg'ona muloqoti hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, ekspertlar va mahalliy hamjamiyatlar birgalikda ishlaydigan platformaga aylandi. Uning vazifasi nafaqat erishilgan o'zgarishlarni qayd etish, balki Markaziy Osiyoni mojarolarning oldini olish va dunyoning boshqa mintaqalari uchun ishonchni oshirish bo'yicha amaliy tajriba manbaiga aylantirishdir," - dedi Eldor Aripov.

Forum yakunlariga ko'ra, uni mintaqaning uzoq muddatli barqarorligiga qaratilgan va uning tajribasini xalqaro darajaga yetkazuvchi doimiy muloqot platformasi sifatida institutlashtirishga qaror qilindi.



Ushbu mavzuning mantiqiy davomi Kaspiy siyosati markazi tomonidan tashkil etilgan maydonda o'tkazilgan muhokama bo'ldi, unda Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazning O'rta koridor kontekstida ortib borayotgan o'zaro bog'liqligi masalasi muhokama qilindi.

Eldor Aripov o'z nutqida ikki mintaqa o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi Yevroosiyoda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni aks ettirishini ta'kidladi.

“Gap yangi bloklar yoki rasmiy ittifoqlar tuzish haqida emas, balki amaliy manfaatlarga asoslangan funksional o'zaro bog'liqlik – transport, savdo, energetika o'tish va ta'minot zanjiri barqarorligi haqida ketmoqda”, deb ta'kidladi u.

Ayniqsa, O'zbekiston Prezidenti ushbu yangi strategik o'lchamni birinchilardan bo'lib tan olgani va Ozarbayjonni Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligi doirasiga kiritishni taklif qilgani ta'kidlandi. Muhokama ishtirokchilarining fikriga ko'ra, ushbu tashabbus iqtisodiy o'zaro bog'liqlik beqarorlik qiymatini oshiradigan va shu tariqa mojarolarning oldini olishga xizmat qiladigan yangi voqelikni aks ettiradi.



Myunxendagi O'zbekiston vakillarining nutqlari Markaziy Osiyo tobora ko'proq muammoning manbai emas, balki yechimning bir qismi sifatida qabul qilinayotganini ko'rsatdi. Markaziy Osiyodan Janubiy Kavkaz orqali Qora dengizgacha bo'lgan hamkorlik makonini rivojlantirish butun Yevrosiyoga ta'sir qiluvchi kengaytirilgan barqarorlik zonasini yaratishi mumkin.

O'zbekiston tomonining takliflari bilan bog'liq qiziqish va faol muhokamalar Markaziy Osiyo tajribasining tobora ortib borayotgan global noaniqlik sharoitida dolzarbligini tasdiqladi. Eldor Aripov ta'kidlaganidek, xavfsizlik ishonch, iqtisodiy o'zaro bog'liqlik va pragmatik siyosiy qarorlar orqali quriladigan mintaqalar global xavfsizlik arxitekturasida barqaror o'rin topishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston tomonidan izchil ilgari surilayotgan va institutsionallashtirilayotgan tinchlik tashabbuslari strategik ahamiyat kasb etadi: ular iqtisodiy, transport va institutsional aloqalarning zich tarmog'ini shakllantiradi. Natijada, har qanday eskalatsiya urinishlari to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni keltirib chiqaradi - tranzitga putur yetkazadi, ta'minot zanjirlarini buzadi, investitsiyalarni yo'qotadi va mintaqaviy bog'liqlikni pasaytiradi, bu esa ziddiyatli dinamikani obyektiv ravishda to'xtatadi va uzoq muddatli barqarorlik foydasiga ishlaydi.

Konferensiyada ishtirok etish doirasida Yevropaning xavfsizlik va preventiv diplomatiya sohasidagi yetakchi institutlar rahbarlari bilan alohida muzokaralar o'tkazildi. Ular orasida Yevropa tinchlik instituti prezidenti va Myunxen xavfsizlik konferensiyasi raisining o'rinbosari

X. Schmid, Bergxof fondi ijrochi direktori Kris Kolter, Nizolarning oldini olish markazi direktori va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kotibiyati rahbarining o'rinbosari Ketrin Firon, Jeneva xavfsizlik siyosati markazi ijrochi direktori Tomas Greminger, shuningdek, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Eduards Stripravs bor edi.

Muzokaralar chog'ida ekspertlik va institutsional hamkorlikni kengaytirish, jumladan, qo'shma tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, tahliliy materiallar almashish, mintaqaviy barqarorlik va preventiv diplomatiya masalalari bo'yicha hamkorlikni chuqurlashtirish istiqbollari muhokama qilindi.

Global munozara maydonlarida Markaziy Osiyoning ishtirokini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Shu o'rinda kelgusi yilda Xavfsizlik bo'yicha Myunxen konferensiyasi doirasida Markaziy Osiyodagi

hamkorlar bilan birgalikda mintaqa ovozi va uning xalqaro taraqqiyot borasidagi nuqtai nazarini to'liq ifoda etishga qaratilgan alohida keng ko'lamli tadbirni o'tkazishga kelishib olindi.

Ma'lumot uchun:

Xavfsizlik bo'yicha Myunxen konferensiyasi global xavfsizlikning dolzarb masalalarini muhokama qilish uchun eng nufuzli xalqaro platformalardan biridir. 2026-yilda uning ishida 115 dan ortiq mamlakatdan mingdan ortiq vakillar, jumladan, 60 dan ortiq davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etdi.

Nizomiy Ganjaviy nomidagi xalqaro markaz xalqaro munosabatlar, mintaqaviy xavfsizlik va sivilizatsiyalararo muloqot masalalariga ixtisoslashgan Ozarbayjonning yetakchi tahliliy markazidir.

Kaspiy siyosati markazi (Caspian Policy Center) - Amerika tahliliy markazi bo'lib, Kaspiy mintaqasi va Markaziy Osiyoda energetika xavfsizligi, mintaqaviy integratsiya va geosiyosat masalalariga ixtisoslashgan.

O'rta koridor (Middle Corridor) - Osiyo va Yevropani Kaspiy dengizi, Janubiy Kavkaz va Turkiya orqali bog'laydigan transport yo'li bo'lib, geosiyosiy turbulentlik sharoitida shimoliy yo'nalishlarga asosiy muqobil sifatida qaralmoqda.